



*2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun  
dastlabki ma'lumot*

## **TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI**



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 4234,4 mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 27,3 mln. AQSH dollariga yoki 0,6 % ga ko'paydi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr 2024 y., mln AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **4 234,4** 0,6 %

(2023- y.: **4 207,1**)

 Saldo

2024- y.: **-1 367,8** (2023- y.: **-1 466,1**)




### Eksport

2024- y.: **1 433,3** 2,7 %

(2023- y.: **1 370,5**)


TSAdagi ulushi, % da



### Import

2024- y.: **2 801,1** -4,2 %

(2023- y.: **2 836,6**)



**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 1 433,3 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 4,6 % ga ko‘paydi) va import hajmi 2 801,1 mln AQSH dollariga (1,2 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -1 367,9 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### **TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**

*(2024- yil yanvar-sentabr mln AQSH dollari)*

XXR	Rossiya	Qozog‘iston	Turkiya	Belarus
TSA – 1 194,1	TSA – 1 088,6	TSA – 561,0	TSA – 270,2	TSA – 94,6
Eksport: 451,0 Import: 743,1  28,2 %	Eksport: 413,7 Import: 674,9  25,2 %	Eksport: 92,4 Import: 468,6  13,2 %	Eksport: 152,0 Import: 118,2  6,0 %	Eksport: 13,9 Import: 80,7  2,2 %
Italiya	Tojikiston	Germaniya	Qирг‘из Respublikasi	Afg‘oniston
TSA – 68,7	TSA – 76,7	TSA – 81,3	TSA – 62,6	TSA – 57,8
Eksport: 10,9 Import: 57,8  1,6 %	Eksport: 43,0 Import: 33,7  1,8 %	Eksport: 5,0 Import: 76,3  1,9 %	Eksport: 29,6 Import: 33,0  1,5 %	Eksport: 57,3 Import: 0,5  1,4 %




**YIRIK HAMKOR DAVLATLAR**  
**BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**  
*(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)*

Davlatlar	2023- y.	2024- y.
<b>XXR</b>	<b>1052,7</b>	<b>1194,1</b>
 <b>Eksport</b>	<b>318,7</b>	<b>451,0</b>
 <b>Import</b>	<b>734,0</b>	<b>743,1</b>
<b>Rossiya</b>	<b>893,2</b>	<b>1 088,6</b>
 <b>Eksport</b>	<b>360,2</b>	<b>413,7</b>
 <b>Import</b>	<b>533,0</b>	<b>674,9</b>
 <b>Qozog‘iston</b>	<b>654,8</b>	<b>561,0</b>
 <b>Eksport</b>	<b>83,5</b>	<b>92,4</b>
 <b>Import</b>	<b>571,3</b>	<b>468,7</b>
<b>Turkiya</b>	<b>347,8</b>	<b>270,2</b>
 <b>Eksport</b>	<b>222,3</b>	<b>152,0</b>
 <b>Import</b>	<b>125,5</b>	<b>118,2</b>
<b>Braziliya</b>	<b>208,9</b>	<b>155,5</b>
 <b>Eksport</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>
 <b>Import</b>	<b>208,9</b>	<b>155,5</b>
<b>Belorus</b>	<b>78,3</b>	<b>94,6</b>
 <b>Eksport</b>	<b>16,6</b>	<b>13,9</b>
 <b>Import</b>	<b>61,7</b>	<b>80,7</b>
<b>Germaniya</b>	<b>89,5</b>	<b>81,3</b>
 <b>Eksport</b>	<b>7,3</b>	<b>5,0</b>
 <b>Import</b>	<b>82,2</b>	<b>76,3</b>
<b>Italiya</b>	<b>128,4</b>	<b>68,7</b>
 <b>Eksport</b>	<b>17,4</b>	<b>10,9</b>
<b>Import</b>	<b>111,0</b>	<b>57,8</b>
<b>Shveytsariya</b>	<b>6,6</b>	<b>52,6</b>
<b>Eksport</b>	<b>1,5</b>	<b>3,7</b>
<b>Import</b>	<b>5,1</b>	<b>48,9</b>
<b>Tojikiston</b>	<b>71,5</b>	<b>76,7</b>
<b>Eksport</b>	<b>34,0</b>	<b>43,0</b>
<b>Import</b>	<b>37,5</b>	<b>33,7</b>




## HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)\*





## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln AQSH dollar'i, ulushi)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga ko‘paydi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 54,3 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-sentabr oylarida 1 936,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 623,0 mln AQSH dollariga yetgan bo‘lsa, import 1 313,8 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### **MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- vil yanvar-sentabr. ulushi. %da)**

**Rossiya – 25,7**



**Qozog‘iston – 13,2**



**Belarus – 2,2**



**Qira‘iz  
Respublikasi – 1,5**



**Turkmaniston – 0,4**



**Tojikiston – 1,8**



**Ozarbayjon – 0,4**



**Ukraina – 0,4**



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (25,7 %), Qozog‘iston (13,2 %) hamda Belarus (2,2 %) davlatlari bilan qayd etildi.

## TOSHKENT VILOYATI EKSPORTI


(2024- yil yanvar-sentabr)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyordi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyordi soni 905 taga yetdi va ular tomonidan 1 433,3 mln AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 4,6 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-sentabr ulushi %da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnarda – XSST) ishlatalidi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




## TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur’ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan, %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>1 370,5</b>	<b>1 433,3</b>	<b>91,4</b>	<b>104,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	157,7	165,2	106,9	104,8	11,5	11,5
Ichimliklar va tamaki	6,1	5,8	210,4	94,4	0,4	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	43,4	46,9	82,4	108,0	3,2	3,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	4,3	21,1	159,6	490,3	0,3	1,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,3	6,5	85,8	516,1	0,1	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	56,4	72,8	95,3	129,0	4,1	5,1
Sanoat tovarlari	870,2	892,5	83,9	102,6	63,5	62,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	41,3	48,7	86,1	118,0	3,0	3,4
Turli xil tayyor buyumlar	185,9	168,9	129,0	90,8	13,6	11,8
Xizmatlar	3,9	4,9	89,7	124,2	0,3	0,3

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 % ni tashkil etib, ulardan yuqori ulush sanoat tovarlari (62,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,5 %) va turli xil tayyor buyumlar (11,8 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kirdi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo 'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlariiga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % ga ko'paygan.



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lган. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 86,5 % ni tashkil etdi.



### TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr, %da)




## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln AQSH dollar'i, ulushi)

- MDH davlatlar
- Boshqa davlatlar



## TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)\*





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-senabr oylarida 109,5 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 83,3 mln AQSh dollariga teng 118,8 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 35,9 mln AQSh dollari qiymatidagi 29,0 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 72,7 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-sentabr, o‘zgarish sur’atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va  
rezavorlar  
29,0 ming tonna  
35,9 mln AQSH  
dollari

Uzum  
8,6 ming tonna  
9,6 mln  
AQSH dollari

Yeryon-g'oqlar  
0,7 ming tonna  
1,0 mln AQSH  
dollari

Sabzavotlar  
80,5 ming tonna  
36,8 mln AQSH  
dollari



## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 2 801,1 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 98,8 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (25,2 %), sanoat tovarlari (14,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (9,3 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



### XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr, ulushi, %da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 35,4 mln AQSH dollariga kamaydi va 2 801,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 6,3 mln AQSH dollariga yetdi.



## TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollarri		O‘sish sur’ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>2 836,6</b>	<b>2 801,1</b>	<b>115,1</b>	<b>98,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	485,3	565,0	94,8	116,4	17,1	20,2
Ichimliklar va tamaki	4,5	6,8	102,1	153,0	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	399,4	395,5	83,0	99,0	14,1	14,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	202,9	298,7	283,0	147,2	7,2	10,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	59,6	68,4	136,5	114,7	2,1	2,4
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	288,6	261,8	110,1	90,7	10,2	9,3
Sanoat tovarlari	454,8	395,6	102,4	87,0	16,0	14,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	872,9	705,4	163,0	80,8	30,7	25,2
Turli xil tayyor buyumlar	64,8	51,3	75,1	79,2	2,3	1,8
Boshqa tovarlar	0,6	46,3	22,7	72,9 m.	0,0	1,7
Xizmatlar	3,2	6,3	55,7	194,1	0,1	0,2


Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko‘ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2024- yil yanvar-sentabr natijalariga ko‘ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 46,9 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga ko‘paydi.

### **MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**


*(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari,  
ulushi)*



2024- yil yanvar-sentabr oylarida yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog‘iston, Turkiya, Italiya, Belarus va Germaniya) jami importning 79,2 % ni tashkil etdi.



### **TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr, %da)**





## TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

*(2024- yil yanvar-sentabr; mln AQSH doll.)*

